

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

JURAYEVA IJOBAT NAJMIDINOVNA

XX-XXI ASRLAR BO‘SAG‘ASIDA AMERIKA ADABIYOTIDA
YOSHLAR MAVZUSI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Jurayeva Ijobat Najmidinovna

XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida Amerika adabiyotida yoshlar mavzusi3

Жураева Ижобат Нажмидиновна

Тема молодежи в американской литературе рубежа XX-XXI веков..... 25

Juraeva Ijobat Najmidinovna

The Theme of Youth in American Literature at the Turn of the XX–XXI Centuries 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

JURAYEVA IJOBAT NAJMIDINOVNA

XX-XXI ASRLAR BO‘SAG‘ASIDA AMERIKA ADABIYOTIDA
YOSHLAR MAVZUSI

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya tili va adabiyoti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

TOSHKENT– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida 2021.1.PhD/Fil1588 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Lihodziyevskiy Anatoliy Stepanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sadiqov Zoxid Yakubjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Adilova Shahnoza Rakhimovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A-uy. Tel: (99871) 230-12-91. faks: (99871) 230-12-92; (99871) 230-12-91; e-mail:uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21 A-uy. tel: (99871) 230-12-91. faks (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
f.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy jahon adabiy jarayonida yoshlar mavzusi badiiy adabiyotning muhim muammosiga aylandi. Barkamol yoshlarni shakllantirish masalasiga turli soha olimlari – psixologlar, sotsiologlar, pedagoglar, adabiyotshunoslar tadqiq obyekti sifatida jiddiy yondashmoqdalar. Shu munosabat bilan ushbu muammo fanlararo integratsiyani talab qiladi. Amerika adabiyotshunosligida yoshlar mavzusiga oid ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Shunga qaramay, zamonaviy yoshlar haqidagi badiiy asarlarni o‘rganish yetarli darajada emas. Yoshlar haqidagi zamonaviy romanlarning o‘ziga xosligi, ularda aks etgan milliy va umuminsoniy g‘oyalar, yozuvchilarning universal va individual mahorati, romanlarning syujet qurilishi, o‘smir obrazi dinamikasi kabi nazariy muammolar jahon andazalari darajasidagi ilmiy ishlarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Amerika romanchiligida badiiy haqiqatni ifodalash shakl va usullari behisob bo‘lib, ularni muayyan qolip, o‘lchov bilan belgilab bo‘lmaydi. Tasvir yoki ifodaning haqqoniyligi adiblarning ijodiy usul hamda uslublari bilan aloqadorlikda turli shakl va darajalarda aks etadi. Fan-texnika yutuqlari, aql va tafakkur taraqqiyotining yosh avlodga ta’siri; isyonkor, qaysar o‘smir obrazini gavdalandirish; xarakterlar mantig‘ini real voqelik mantig‘i bilan kitobxonni ishontira oladigan darajada asoslay olish mahorati amerikalik mualliflar Avi, Lori Anderson, Oktavia Butler, Shon Makbrayd va Jastin Torres yaratgan o‘smir ruhiy olamidagi o‘y-fikr, kechinma va holatlarning mohiyatini butun murakkabligi bilan qamrab olishida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida yoshlar haqida asarlar yaratgan adiblar ijodini o‘rganish tadqiqotchilarda, shubhasiz, qiziqish uyg‘otadi, chunki bunday adabiyotlar ma’naviyatni yuksaltirishda, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-axloqiy paradigmalarni qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi. Zero, “Mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularga barcha sohalarda o‘z iqtidori va salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi”¹. Yoshlarni kitobxonlikka da’vat etish, jahon adabiyotining eng sara namunalari bilan tanishtirish, xorijiy adabiyotlar haqidagi bilimni kengaytirish, ma’naviy salohiyatini yuksaltirish globallashuv jarayoni sharoitida Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashda ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 8-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6260-son Farmoni// <https://lex.uz/uz/docs/-5512119>

oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi mazkur faoliyatga tegishli, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari”² ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Jahon adabiyotshunosligida badiiy asarlarda yoshlik mavzusini ochib berish muammosi tadqiq etilgan va bu masalaga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar ham mavjud. Amerika adabiyotida yoshlar mavzusini o‘rgangan postsovet tadqiqotchilari orasida E.Rozental, G. Andjaparidze, T. Morozova, A. Mulyarchik, L. Zemlyanova, T. Denisova, Y. Arxipovlar kabi olimlar bor. G‘arb tanqidchilari orasida Sh.Vulf (Shelby Wolf), K. Donelson (Kenneth Donelson) va A.Nilsen (Alleen Pace Nilsen), J. Etsi (Jed Etsy), A. Garsiya (Antero Garcia), P. Kempbell (Petty Campbell) va boshqalarning ilmiy ishlarini alohida e’tirof etish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, M. Jerri Ueyss (Jerry Weiss) o‘z tadqiqotlarida bolalar va o‘smirlar haqidagi adabiyotga jiddiy ahamiyat qaratadi. O‘zbek adabiyotshunosligida ham ta’lim-tarbiyaviy xarakterga ega ma’rifiy romanlar mavjud³.

Bir qator o‘zbek tadqiqotchilari ham turli kontekstdagi yoshlar mavzusini o‘rganish predmeti sifatida tanlaydilar. E. Muratova Jeyms Jons (1921-1977) asarlarida ikkinchi jahon urushining yoshlar ruhiyatiga ta’siri xususida to‘xtalib, “Yo‘qotilgan avlod” va “topilmagan avlod” mavzularini izohlaydi, shuningdek, “Beva-yaratuvchiga boring” (*Go to the Widow-Maker*, 1967), “Quvnoq May” (*Merry Month of May*, 1971), “Xatar bilan yuzlashish” (*A Touch of Danger*, 1973) asarlarida talabalar qo‘zg‘olonini tahlil qiladi. Olimaning fikricha, muallif

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6260-son Farmoni// <https://lex.uz/uz/docs/-5512119>

³ Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: «Халқ мероси» нашриёти, 2004. – Б. 217-218.

“G‘arb jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga muvaffaq bo‘lgan”⁴. S.Babayeva G‘.G‘ulom va M. Tven asarlari misolida “bolalik” tushunchasining qiyosiy-tipologik tahlilini amalga oshirgan⁵. N. Maxmudova ingliz yozuvchisi Charlz Dikens tarbiya romanlari hamda ularning jahon adabiyotining boshqa janrlari bilan tipologik aloqalarini o‘rgangan⁶.

Biroq bu borada olib borilgan ishlarning ilmiy-nazariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, XX-XXI asrlar bo‘lag‘asida Amerika adabiyotida yoshlar mavzusi yaxlit monografik tadqiqot sifatida o‘rganilmagani bois ushbu muammoni ilmiy asosda tadqiq etishga ehtiyoj tug‘ildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 204-4-5 “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar” loyihasining “Amerika va o‘zbek adabiyotining qiyosiy tipologiyasi” (2021-2023) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Amerika Qo‘shma Shtatlari yozuvchilari ijodi misolida yoshlar haqidagi asarlarda o‘smirlar obrazini yaratish usullari, muammolari, mavzu va g‘oyasini aniqlash, shuningdek, so‘nggi o‘n yilliklarda yaratilgan yoshlar romanlarining poetik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sotsiolog, pedagog va adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlari asosida tarbiya muammolari, yoshlarning ichki olamidagi ziddiyatlar va o‘smirning isyonkor xarakteriga sabab bo‘lgan ijtimoiy, maishiy omillarni o‘rganish;

Amerika adabiyotida yoshlar mavzusining evolyutsiyasi va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish;

AQSh adabiyotidagi yoshlar haqidagi romanlarning janriy xususiyatlari va g‘oyaviy-tematik o‘ziga xosligini o‘rganish;

1990-yillar Amerika adabiyotida yoshlar obrazini aks ettirishning badiiy prinsiplarini aniqlash;

2000-yillardagi amerikalik yozuvchilarning asarlarida isyonkor obrazining adabiy-estetik xususiyatlarini o‘rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Avining “Haqiqatdan boshqa hech narsa” (*Nothing but the Truth*), Oktaviya Batlarning “Urug‘ ekuvchi haqidagi masal” (*The Parable of the Sower*), Lori Andersonning “Gapir” (*Speak*), Shon Makbraydning “Yashil. Maysa. Inoyat” (*Green. Grass. Grace*) hamda Jastin Torresning “Biz hayvonlarmiz” (*We the Animals*) romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti XX-XXI asrlar Amerika adabiyotida yoshlar mavzusi, yoshlar to‘g‘risidagi romanlarning badiiy va lingvostilistik xususiyati,

⁴ Муратова Э.Д. Война и мир Джеймса Джонса. – Ташкент: Taffakur qanoti, 2012. – С. 93

⁵ Бабаева С.Р. Ўзбек ва АҚШ адабиётида болаликнинг бadiий талқини (Ғ.Ғулом ва М.Твен ижоди мисолида): Филол.фан.ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.

⁶ Махмудова Н.А. Типология жанра роман воспитания в творчестве Чарльза Дикенса: Автореф. дис. канд. фил.наук. – Ташкент, 2020. – 57 с.

shuningdek, yoshlar psixologiyasi va ularning ijtimoiy muammolarga munosabatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirish uchun qiyosiy-tipologik, psixoanalitik, psixologik, biografik, kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Amerika romanchiligining tadrijiy taraqqiyoti, uning jahon romanchiligi poetikasi ilg'or yutuqlarini o'zlashtirib, dunyo romaniy tafakkuriga integratsiyalashuvi muammolari, til va uslub xususiyatlari, isyonkor o'smir obrazini gavdalandirishda yozuvchilarning individual mahorati muallif g'oyasining mantiqiylik va ijodiy fantaziyasining kengligi mezoni asosida dalillangan;

XX-XXI asrlardagi Amerika ijtimoiy-madaniy hayotining AQSh adabiyotida bevosita aks ettirilishi, o'smir tafakkurining shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillar ta'siri, yoshlar va ularning chigal taqdiri, adiblarning jamiyatdagi dolzarb muammolar to'g'risida bosh qotirishga, fikrlashga undovchi g'oyalari syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat negizida tasniflangan;

Amerika adabiyotida yoshlar tarbiyasi, an'anaviy qadriyatlarning naqadar teran, jozibador talqini; oila timsolida butun insoniyatga daxldor falsafani Jastin Tores va Shon Makbrayd tomonidan o'ziga xos yo'sinda badiiy ifoda etilishi; o'smirning adabiy-psixologik portretini yaratishda badiiy va lingvistik-stilistik timsollar, motivlar, yoshlar jargonlari, idiomalar, metaforalar, Amerikaning turli shevalari kabi badiiy tasvir vositalari yetakchi o'rin egallashi asar tilining boyligi va rang-barangligi mezoni orqali isbotlangan;

mavzu va g'oyasida yoshlar xarakteri dinamikasi aks etgan asarlar va o'smirlar adabiyotining shakllanishiga oid ilmiy-nazariy manbalar tadqiqi natijasida yoshlar adabiyoti va yoshlar haqidagi adabiyot konsepsiyalari farqlanib, ularning alohida ikki tip ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

postsovet va chet el adabiyotshunoslari ijodida yoshlar va yoshlar romani mavzusini tadqiq qilishning tanqidiy asosi o'rganilgan;

o'smir-qahramon haqidagi romanning strukturasi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, epik ko'lami, voqealar dinamikasi va shakl-mazmun jihatlarini ochib berilgan;

keyingi avlod yoshlari haqidagi romanlarga qator asarlarning adabiy ta'siri mavjudligi kompozitsiya, syujet, obraz va motiv tahlili negizida asoslangan;

romanlarda epik kechinmaning asar voqealari bo'ylab bir xil nisbatda ifodalash uchun badiiy shartlilik qonuniyatiga amal qilishda adiblarning o'ziga xos mahorati izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, chiqarilgan xulosalar qiyosiy-tipologik, kontekstual, psixoanalitik, psixologik, biografik tahlil usullari bilan asoslangani, tanlangan romanlarning tadqiqot

predmetiga muvofiqligi, ishonchli nazariy manbalar, nashrlar hamda lugʻatlardan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar oʻtkir syujet poetikasi, falsafiy teranlik, noanʼanaviy syujet va kompozitsion qurilishi, oʻsmir qahramonlarning ichki olamidagi ziddiyatlar, yoshlar qalbining sirli, tushunish mushkul boʻlgan jihatlarini turli rakurslardagi tasviri, yozuvchilarning ruhiyat manzaralarini tasvirlash mahorati hamda postsovet adabiyoti va postmodernizm kabi bir qancha adabiy yoʻnalishlar boʻyicha ilmiy-nazariy muammolarni oʻrganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oʻsmir ruhiyatidagi qarama-qarshiliklar, ichki olamidagi evrilishlarni amerika romannavislari asarlari misolida qiyosiy tahlil etishda adabiy-estetik manba vazifasini bajara olishi hamda uning xulosalaridan jahon adabiyoti tarixi, Amerika adabiyoti tarixi, chet el adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy aloqalar kabi fanlarni va maxsus kurslarni oʻqitishda hamda oʻquv qoʻllanmalari, xrestomatiya, darslik, majmua, lugʻatlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

XX-XXI asrlar boʻsagʻasida Amerika adabiyotida yoshlar mavzusi tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

Amerika romanchiligining tadrijiy taraqqiyoti, uning jahon romanchiligi poetikasi ilgʻor yutuqlarini oʻzlashtirib, dunyo romaniy tafakkuriga integratsiyalashuvi muammolari, til va uslub xususiyatlari, isyonkor oʻsmir obrazini gavdalandirishda yozuvchilarning individual mahorati muallif gʻoyasining mantiqiyiligi va ijodiy fantaziyasining kengligi mezonini asosida dalillanganiga doir ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining 2020-2022-yillarda amalga oshirilgan “Erudit” shifrlı innovatsion loyihasi doirasida, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy taʼlim muassasalari uchun “Chet tillari” fan dasturini takomillashtirishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi mudofaa vazirligining 2022-yil 15-dekabrdagi 10/2284-son maʼlumotnomasi). Natijada Jerom Selinjerning “Javdarzordagi ovchi”, Jastin Toresning “Biz hayvonlarmiz” va Shon Makbraydning “Yashil. Maysa. Inoyat” asarlari tahlili loyiha mazmun-mohiyatini boyitib, dastur, elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba boʻlib xizmat qilgan;

XX-XXI asrlardagi Amerika ijtimoiy-madaniy hayotining AQSh adabiyotida bevosita aks ettirilishi, oʻsmir tafakkurining shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillar taʼsiri, yoshlar va ularning chigal taqdiri, adiblarning jamiyatdagi dolzarb muammolar toʻgʻrisida bosh qotirishga, fikrlashga undovchi gʻoyalari syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat negizida tasniflangani borasidagi nazariy fikrlardan 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan

SUZ-800-21-GR-3181 “Qarshi davlat universitetida ingliz tili kompetensiyasini mustahkamlash” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2023-yil 3-martdagi 04/863-son ma’lumotnomasi). Natijada mavzu va g’oyasida yoshlar xarakteri dinamikasi aks etgan asarlar va o’smirlar adabiyotining shakllanishiga oid ilmiy-nazariy manbalar tadqiqi asosida o’sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida Jastin Torres va A. Shon Makbrayd asarlari muhim ahamiyat kasb etishi izohlangan hamda yozuvchilarning qahramonlar ichki dunyosini ochish mahoratini tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

Amerika adabiyotida yoshlar tarbiyasi, an’anaviy qadriyatlarning naqadar teran, jozibador talqini; oila timsolida butun insoniyatga daxldor falsafani Jastin Tores va Shon Makbrayd tomonidan o’ziga xos yo’sinda badiiy ifoda etilishi; o’smirning adabiy-psixologik portretini yaratishda badiiy va lingvistik-stilistik timsollar, motivlar, yoshlar jargonlari, idiomalar, metaforalar, Amerikaning turli shevalari kabi badiiy tasvir vositalari yetakchi o’rin egallashi asar tilining boyligi va rang-barangligi mezonini orqali isbotlanganiga oid ilmiy xulosalardan 2021-2022-yillarda bajarilishi mo’ljallangan SUZ80021IN3103-raqamli “Establishment of American Literature Club at Bukhara State University” nomli xalqaro loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 8-iyundagi 12-02/1536-son ma’lumotnomasi). Natijada AQSh adabiyotida o’sha davrdagi ijtimoiy haqiqatlarning bevosita ifodasi hamda ijtimoiy-psixologik vaziyatlarning o’smirlarni shaxs sifatida shakllanishiga ta’sirini badiiy aks ettirishda yozuvchilar uslubidagi universal va o’ziga xos jihatlar tahlili loyiha mazmunini boyitishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta jumladan, 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 18 ta maqola chop etilgan, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan maqola.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, ishning umumiy hajmi 137 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi ko’rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy va adabiy kontekstdagi Amerika yoshlari**

muammosi” nomli birinchi bobida zamonaviy Amerika adabiy tanqidida yoshlar mavzusiga oid badiiy asarlarning tahlili berilgan. Yoshlik haqidagi roman nazariyasining asoslari, genezisi va evolyutsiyasi omillari Rossiya tadqiqotchilari – Eduard Rosental, Georgiy Andjaparidze, Tatyana Morozova, Aleksandr Mulyarchik, Lidiya Zemlyanova, Tatyana Denisova, Yuriya Arxipov, shuningdek, gʻarb olimlari – Shelby Vulf, Ken Donelson va Alyn Peys Nilsen, Jada Etsi, Antero Garsia, Petty Kempbel, M. Jerry Ueiss va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida bayon etilgan. Ushbu bobda oʻsmirlar haqidagi badiiy asarlarda yoshlar mavzusi, yaʼni yoshlar haqidagi adabiyotlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan (inglizcha “Young adults literature” “yoshlar adabiyoti” degan maʼnoni anglatadi). Boshqacha aytganda, yoshlar haqidagi adabiyotlar oʻsmirlik hayotini ifodalash bilan birga, oʻsmirlar haqidagi asarlarni ham oʻz ichiga oladi. Yoshlar adabiyotining maqsadli oʻquvchilari yoshlar, jumladan, oʻsmirlar boʻlsa, “yoshlar adabiyoti”ni ham yoshlar, ham kattalar yoki biroz oʻqish tajribasi va bilimiga ega zukko kitobxonlar oʻqiydi. Yoshlar adabiyoti 11-12 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan kitobxonlar uchun moʻljallangan asarlarni oʻz ichiga oladi, zero, bosh qahramon koʻpincha oʻquvchi bilan bir xil yoshdagi vakildir. Hikoya odatda birinchi shaxs tilidan bayon qilinadi, ulgʻayish mavzusi va boshqa “yosh” mavzulari va yoshlarni qiziqtiradigan muayyan masalalar haqida soʻz boradi. Yoshlar haqidagi asarlarning qahramonlari maktab va maktabdan keyingi yoshdagi oʻsmirlar boʻlsa-da, ular dolzarb ijtimoiy muammolarni koʻtaradi. Yoshlar haqidagi asarlar koʻpincha intellektual nasr xarakteriga ega boʻlib, unda oʻsmir yoki yigit obrazida hayotning tushunarsiz tomonlari bilan tanishishga intilgan “kashshof”lik xususiyatlari mavjud. Yoshlar haqidagi asarlarning bosh qahramonlari voyaga yetmaganlar, oʻsmirlar boʻlishiga qaramay, bu adabiyot keng oʻquvchilar ommasiga moʻljallangan. Hozirgi vaqtda yoshlar haqidagi adabiyotlar kattalar uchun koʻproq qiziqarli, masalan, Robert Kormierning 1974- yildagi “Shokolad urushi” (1974) romani yoshlar uchun moʻljallanmagan, lekin bosh qahramon oʻsmir bola. Ushbu asarlar katta yoshdagi kitobxonlarni qiziqtiradi, chunki qahramonlari zamonaviy jamiyatning dolzarb ijtimoiy muammolariga yechim izlashadi. Yoshlar va yoshlar haqidagi zamonaviy fantastika xilma-xildir. “Yoshlar adabiyoti”ni “yoshlar haqidagi adabiyot” deya talqin qilish mumkin. Ishda bolalar adabiyoti obyekt doirasiga kirmaydi, chunki tahlil uchun olingan asar qahramonlari yosh diapazoni allaqachon 13 yoshga toʻlgan bolalar yoki ulardan kattaroq oʻsmirlardir.

Biroq “yoshlar” toifasida aniq yuqori yosh chegarasi yoʻq va zamonaviy jahon adabiyotida “yoshlar”ga mansub odamlarning yoshi asosan katta maktab yoshidagi bolalardan boshlanadi va qahramonlari 30 yoshgacha boʻlgan asarlar bilan tugaydi. Shuningdek, yoshlar haqidagi adabiyotlarda asar qahramonlari ham oʻsmirlar, ham keksa yoshdagi insonlardir va shunga mos ravishda oʻsmirlar va yoshlar haqidagi adabiyotlarning mavzu va muammolari ham bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. 20-asrning oʻrtalarida yoshlar haqidagi adabiyot kattalar auditoriyasi orasida ayniqsa mashhur boʻldi. Kempbel shunday iqtibos

keltiradi: “Harry Potter showed publishers that adults would read a book with a young teen protagonist”⁷, bu bilan katta o‘quvchilar orasida yoshlar mavzusining ommalashishini tushuntirdi. Tanqidchi ushbu adabiyotga qiziqishning boshqa sabablarini ham, jumladan, “yoshlar” nominatsiyasida bir qator kitob mukofotlari ta’ sis etilganligini ham ta’kidlaydi⁸.

“Yoshlar adabiyoti” atamasi yozuvchilar tomonidan yaqinda qo‘llanila boshlandi. Yoshlar adabiyotiga ta’rif berish juda qiyin, chunki “yoshlik” atamasini bir ma’noda talqin qilish qiyin. “The term (young adult literature), like the gelatin, is inherently slippery and amorphous”⁹, deydi amerikalik tanqidchi va yoshlarga oid asarlar muallifi Maykl Karte “yoshlar adabiyoti” atamasi aniq chegaralarga ega emas va uni aniqlash murakkab, deb hisoblaydi. Biz Kartning fikriga qo‘shilamiz, chunki yoshlar adabiyoti aralash auditoriyaga ega va yosh avlod va kattalar orasida mashhur. Yoshlik mavzusi turli janrlarda ifodalanishi mumkin, “yoshlar adabiyoti” atamasiga bir so‘z bilan ta’rif berish biroz bahslidir. Shunday qilib, turli nazariyalar paydo bo‘ladi, ularning mualliflari ushbu yosh toifalarini ushbu adabiyotga nisbatan tasniflaydilar. Dissertatsiyada psixologlar tomonidan tavsiya etilgan tasnifga ham murojaat qilinib, muammoga adabiy-estetik nuqtai nazardan yondashildi. XX asr o‘rtalarida yaratilgan asarlar ijtimoiy asoslarni shubha ostiga qo‘ygan deb hisoblaymiz, ularning asosiy mavzusi jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlardir. Adabiyotda yoshlik mavzusi bolalar adabiyotining bir qismi bo‘lib, adabiyotshunoslarning jiddiy e’tiborini talab qiladigan muhim bir jihat sifatida qabul qilinmagan. T. Morozova, A. Mulyarchik, G. Anjaparidze tadqiqotlarida Amerika adabiyotida yoshlar mavzusiga muhim o‘rin berilgan. A. Mulyarchik va T. Morozova tushunchalari ko‘plab umumiyliklarga egaligini aniqlandi. Bizningcha, yosh avlod muammosi bilan bog‘liq asosiy masalalar ularning monografiyalarida to‘g‘ri va yetarlicha aks ettirilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu qoidalar keyingi izlanishlar uchun asos bo‘ladi. G. Anjaparidze pozitsiyasining barcha qarama-qarshiliklariga qaramay, uning ishida ushbu mavzuga yondashish uchun qimmatli uslubiy ko‘rsatmalar ham mavjud. Ammo olim umuman isyonchi deb baholamaydigan, yosh avlodning tanazzulga uchragan dangasa amerikalik deb hisoblagan qahramon Salingerga munosabati haqida fikr bildirish mumkin. Bu pozitsiya rus adabiy tanqidida ilgari ham muhokamalarga sabab bo‘lgan, lekin bu nuqtai nazarni qo‘llamaymiz, Amerika adabiyotida yosh yigit muammosini tahlil qilishga uslubiy yondashuv to‘g‘ri va istiqbolli ko‘rinadi. Amerikalik adabiyotshunos olimlar va psixologlarning ishlarini ko‘rib chiqish ushbu mavzu va muammoga yondashishning ko‘plab jihatlari bor degan xulosaga kelishga imkon beradi. Tanqidchilarning har biri muayyan nuqtai nazarni tanlashda o‘ziga xos tarzda haqli va ular tadqiqot ko‘rib chiqilayotgan muammo haqida to‘liq tasavvur

⁷ Campbell P. Campbell's Scoop: Reflections on Young Adult Literature. – Lanham: The Scarecrow Press, 2010. – P. 34.

⁸ Campbell P. Campbell's Scoop: Reflections on Young Adult Literature. – Lanham: The Scarecrow Press, 2010. – P.35.

⁹ Cart M. Young adult literature: From romance to realism. – 2 изд. – Chicago: ALA Editions, 2010. – P. 3

beradi.

O'tgan asrning o'rtalari yoshlar haqidagi romanlarning paydo bo'lishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi va XX asrning ikkinchi yarmida Amerika adabiyotida yoshlar nasri mashhur bo'ldi. Zamonaviy o'smirlar adabiyoti murakkabroq syujeti bilan ajralib turadi va uning kompozitsiyasida eksperimentlar ustunlik qiladi. Yoshlar qo'zg'oloni sovet va g'arb sotsiologlari – E. Rozental, Yu. Davidov, M. Novinskaya, Ch. Reyx, L. Salicheva, Yu. Manko, K. Myalo, Yu. Volkov, A. Marshak, S. Sergeev, T. Shepanskaya, T. Gulyaevlarning¹⁰, shuningdek, Yu. Arxipov, A. Mulyarchik, G. Andjaparidze, T. Morozova, L. Zemlyanova, T. Denisova, Yu. Arxipova, A. Dimshits kabi adabiyotshunoslarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Shelbi Vulf, Ken Donelson, M. Jerri Ueys, Antero Garcia, Jed Etsy, Allyn Peys Nilsenlar Amerika adabiyotida yoshlar mavzusini alohida o'rganib chiqdilar, bu bir qator adabiy asarlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shdi. Ularning monografiyalarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy qiyinchiliklarga qarshi kurashgan XX asr yoshlarining fe'l-atvori tahlil qilinadi. Isyonkor, bilimli yoshlar psixologiyasini (talabalar qo'zg'oloni) Yu. Davidov, M. Novinskaya, Ch. Reyx, L. Salychева, Yu. Manko, K. Myalo, Yu. Volkov, A. Marshak, T. Shepanskaya, S. Sergeevlar tadqiq etib, keyinchalik muayyan guruhlarining, ya'ni submadaniyatlarning turmush tarzini shakllantiradigan yoshlarning qadriyatlarini sifatida izohlashdi.

XX asrning ikkinchi yarmidagi Amerika yoshlar adabiyotiga ingliz va g'arb yozuvchilarining asarlari o'z ta'sirini ko'rsatdi. Isyonkor yigit haqidagi romanlar 1950-1960-yillarda ko'paydi. Selinjerning "Javdarzordagi ovchi" asari yoshlar tarbiyasini adabiy, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik tanqid ostiga oladi. Yoshlik romanlari 20-asrda o'smirning ichki dunyosiga alohida e'tibor qaratganligi uchun yuksak mashhurlikka erishdi. Tom Soyer, Geklberri Fin, Skaut, Xolden Kolfild kabi mashhur asar qahramonlari o'quvchini o'smir bolaning o'tkir nigohi va idroki orqali Amerika jamiyati bilan tanishtiradi. O'tgan asrning o'rtalarida yozilgan yoshlar romani ijtimoiy tartiblarga moslashishdan bosh tortgan yigitni tasvirlaydi. Bu adabiyot o'qituvchilariga, maktabiga, ota-

¹⁰ Розенталь Э. М. Парадоксы протеста. Очерки о молодежи Запада. - М.: АПН, 1985. - 272 с.; Давыдов Ю. В. Эстетика нигилизма. (Искусство «новые левые»). М., «Искусство», 1975. С. 63; Новинская М.И. Студенчество США: социально-психологический очерк. - М., 1977. 166 с.; Reich Ch. A. The Greening of America. N. Y.: Random House, 1970. - 433 p.; Салычева Л.А. Студенческое движение: 1960–1970 // Л.А. Салычева // США экономика, политика, идеология. - 1972. - № 4. - С. 24–31.; Манько Ю. В., Оганян К. М. Социология молодежи. - СПб.: Петрополис, 2008. - 316 с.; Мяло К. Под знаменем бунта: Очерки по истории и психологии молодежного протеста 1950-х-1970-х гг. - М.: Молодая гвардия, 1986. - 287 с.; Волков Ю. Г., Добренев В.И., Кадария Ф.Д., Савченко И. П., Шаповалов В.А. Социология молодежи: Учебное пособие / Под ред. Ю. Г. Волкова. - Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. - 576 с.; Маршак А.Л. Социология культуры: пути научного становления (1968-2018) // RUDN Journal of Sociology. - 2019.- № 2 (19).— С. 313-321 DOI: <https://doi.org/10.22363/2313-2272-2019-19-2-313-321>; Сергеев С. А., Абдуллина Т. С. Молодёжная субкультура готов: генезис, стиль, влияние на массовую культуру: монография / Министерство образования и науки России, Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования "Казанский национальный исследовательский технологический университет". - Казань: КНИТУ, 2016. - 151 с. ISBN 978-5-7882-2024-6; Шепанская Т.Б. Символика молодежной субкультуры: опыт исследования системы. СПб., 1993; Гуляева Т.В. Типы и виды современных молодежных организаций. // Научные труды Дальрыбвтуза. - 2008. - №20. - С. 405-412.

onasiga va hokimiyatga qarshi qo'yilgan isyonkor o'smir tasviri edi.

XXI asrda yoshlar adabiyoti davri davom etmoqda, unda yoshlar haqidagi romanlar mavzulari boyib bormoqda. Bu davrda paydo bo'lgan asarlarning tadqiq va tahlili shuni ko'rsatadiki, ulardagi qashshoqlik, yolg'izlik, xalq bilan munosabatlar, giyohvandlik, migratsiya va boshqa ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi voqelik muammolari ham ilgari surilgan. XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi yoshlar romanini tahlil qilish jarayonida tadqiqotchi zo'ravonlik va jinoyat kabi jismoniy va real xarakterdagi holatlarga duch keladi. Yolg'izlik va ijtimoiy hayotga moslashmaslik mavzusi ham shu davr adabiyotidagi masalalardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“1990-yillar AQSh adabiyotida yoshlar mavzusi”** nomli ikkinchi bobida Avining “Haqiqatdan boshqa hech narsa”, Oktaviya Batlarning “Urug' ekuvchi haqidagi masal” va Lori Andersonning “Gapir” romanlari janri, voqelikni betakror obrazlilik bilan qaytadan idrok etish, milliy tilning nutqiy imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olish, shakl va mazmunning o'ziga xos uyg'unlashishi nuqtai nazardan obrazlar, timsollar tahlili, intertekst va qiyosiy tahlillar amalga oshirilgan. 1990-yillardagi Amerika romanida yoshlar mavzusi bir qator asarlarning tasvir markazida bo'ladi. Ularning eng xarakterli misollari Avi, Oktavia Butler va Lori Andersonning romanlaridir. Avining “Haqiqatdan boshqa hech narsa” nomli kinoyali romani Amerika ta'lim tizimida sodir bo'lgan achchiq haqiqat haqidadir. Asar qahramoni, 9-sinf o'quvchisi dangasa bo'lib, o'z muvaffaqiyatsizliklarida o'qituvchini ayblashga bor kuchi bilan harakat qiladi. O'quvchining o'z o'qituvchisiga nisbatan o'sha davr bo'ylab odatiy holga aylangan muvaffaqiyatsiz boshlangan o'zaro munosabatlari fonida roman maktab ma'muriyati bilan bog'liq bir qator muammolarni aks ettiradi. Bunda manipulyatsiya mavzulari, g'alaba va mag'lubiyat rollari markaziy o'rinni egallaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, bolani aldashning sababi uning oiladagi tarbiyasi, ota-onalarning maktab o'qituvchilari va umuman maktabga bo'lgan munosabati, bolaning muammolariga munosabatidir. Romanning g'oyaviy mazmuni maktabdagi ta'lim-tarbiya tizimini tasvirlash, shaxs va jamoa ongining o'rnini, shuningdek, ota-onalarning bolalarda mas'uliyat va chinakam vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashdagi ishtirokidadir. An'anaviy shaklga ega roman ustida muallif turli tajribalarni qo'llaydi, ya'ni romanda turli badiiy janrlardan foydalanadi. Asar kundalikdan parchalar, xatlar, qisqacha onlayn bildirishnomalar, telegramma matnlari, madhiya parchalari va sinfda bajarilgan topshiriqlar, ommaviy chiqishlar, radioeshittirishlar stenogramma, ekrandagi suhbatlar yozuvlarini o'z ichiga oladi, bu esa muallifga uni “Avi tomonidan hujjatli roman” deb nomlashga imkon beradi. Bu o'rinda, S. Krijanovskiyning asosiy sahifasi “...yaxlit ma'noga ega bo'lishi, matn iboraga to'g'ri kelishi” kerak, degan ifodasini esga olish o'rinlidir. Sarlavhada muallif taxallusining qo'llanishi romanda avtobiografik unsurlarning mavjudligidan dalolat beradi, bu esa asar syujeti yozuvchining o'z hayotidan, maktabdagi tajribasidan olingan voqealarga

asoslanganligini yana bir bor tasdiqlaydi¹¹.

Roman syujeti “Haqiqatdan boshqa hech narsa” sarlavhasi bilan qarama-qarshi bo‘lib, unda muallif bosh qahramonning yolg‘onchiligini, ommaviy madaniyatni, umuman, tizimni qoralaydi. Hatto ma‘muriyat ham haqiqatni bilib, ko‘pchilikni, ya‘ni narsalarni odatiy idrok etishni yoqtirish uchun yolg‘onni qo‘llab-quvvatlaydi. Butun roman turli yozish formatlari va hikoya qilish uslublari bilan to‘la. Muallif ko‘pincha o‘quvchini chalg‘itmoqchi bo‘lgandek, kursiv va harflar shriftini o‘zgartiradi. So‘z o‘yini maktabning “*Where Our Children Are Educated, Not Just Taught*” shioridan iborat bo‘lib, unda yuqorida aytib o‘tilganidek, “educate” va “teach” so‘zlari ma‘no jihatidan taqqoslangan, ammo romanda “educate” (tarbiyalamoq) va “teach” (o‘rgatish) so‘zlarining ma‘nolaridagi farqni kuzatish mumkin emas. O‘yin so‘zlashuvi “hum” va “sing” so‘zlarini solishtirishda ham sodir bo‘ladi, roman qahramoni esa og‘zini berkitib g‘o‘ldiraydi va shu orqali sinfda g‘o‘ng‘irlash effektini keltirib, madhiya aytayotganini ta‘kidlaydi.

Jargon va so‘zlashuv so‘zlarining qo‘llanilishi romanga real ohang bag‘ishlaydi. So‘zlashuv tilini yoshlar adabiyotiga kiritish asoschisi bo‘lgan Salinger uslubi ham idiomalar, jargon va shevalardan foydalanish bilan ajralib turadi. Salinger an‘analariga amal qilgan holda, Avining “Haqiqatdan boshqa hech narsa” asari idiomalar, jarangli so‘zlar va norasmiy iboralarga boy. Qahramon Avi o‘smirlik davrida o‘z nutqida o‘ziga xos iboralarni ishlatadi va muallif buni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazishga harakat qiladi. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi dialoglarda ishlatiladigan til shakllari va lug‘at o‘rtasida aniq kontrast mavjud. Shuningdek, bolalar o‘rtasidagi dialoglarda turli jargon va barqaror birikmalar ham mavjud: *have it in for someone* – kimdandir jahli chiqmoq, kimdandir g‘azablanmoq, *button your lip, shut your trap* – jim, og‘zingni yop; *jerk* – ahmoq, *crap* – axlat, *to turn on the juice* – dopingdan foydalan, *buddies* – do‘stlar, *doo-doo* – axlat va hokazolar.

Romanning badiiy tadqiq etilayotgan voqelikning muhim xususiyatlarini ifodalovchi, o‘zining mohiyati bilan kishilarni umumlashtiruvchi, yo‘naltiruvchi, narsa va hodisalarni baholovchi tafakkur tarzi, ya‘ni mafkurasi Qo‘shma Shtatlardagi o‘rta maktab ta‘limining zaif, oson ta‘sir ko‘rsatadigan saylov tizimidan olingan. Romanning g‘oyasi, asl haqiqat garchi u yolg‘on bo‘lsa-da, kuchlilar qo‘lida ekanligini anglashdir. Narvin xonimga nisbatan qalbida yolg‘on “tuhmat”ga qarshi bo‘lgan direktor doktor Gertrud Doana (doktor Gertrud Doana)ning fikrlari va so‘zlari bir-biridan farq qiladi, lekin direktorda butun maktab byudjeti va direktorlar kengashi, saylovlar tizimiga qarshi chiqishga jur‘at yetishmaydi. Ikki “qarama-qarshi” tomon – talaba va o‘qituvchining fikr va hissiyotlari kundalik va xatlarida aks ettirilgan. Direktorning xavotirlari Miss Narvin va doktor Seymur bilan o‘zaro suhbatlarda o‘z aksini topadi.

Los-Anjeleslik afro-amerikalik yozuvchi Oktavia Batler (1947–2006),

¹¹ Крижановский С. Поэтика заглавий. – М: Никитинские субботники, 1931. – С.12.

Amerika adabiy doiralarida o'zining ijtimoiy-falsafiy ilmiy-fantastik romanlari bilan mashhur. Oktaviya Batlarning "Urug' ekuvchi haqidagi masal"i yosh qora tanli ayol Lorenning kapitalizm, patriarxat va irqchilikdan tashqarida sodir bo'lgan apokalipsis orqali dunyoda hayot va yangicha yashash tarzini olib borayotgani haqida hikoya qiladi. Romanda ichimlik suvi yetishmasligi tufayli tahdidlar keskin kuchaygan post-apokaliptik dunyoda omon qolish uchun kurash voqealari tasvirlangan. Asardagi ixtilof mavzusi, ya'ni din va axloqning parchalanishi asosiy mavzuga aylanadi. Romanda tanazzul muammosi jamiyatning, oilaning parchalanishi aks etgan hikoyatlarida ham mavjud. 15 yoshli Loren o'zi yashayotgan jamiyatning turg'unligiga salbiy munosabatda bo'lib, o'zi va atrofidaqlarini hidoyatga boshlaydigan yangi din yaratishga qaror qiladi. Romanning yana bir mavzusi – qochish. Omon qolish va notinch hayotdan qochish uchun va tinchlikni tiklash umidida asar qahramoni "Yer urug'i" deb nomlangan yangi e'tiqodni yaratadi. Roman iqlim o'zgarishi va global isish tufayli yuzaga kelgan kataklizm muammolarini ko'taradi, bu yerda muallif o'z atrofidaqlari dunyoni katta yoshli yigitga aylanadigan o'smirning dunyoqarashi orqali tasvirlaydi. Oktaviya Batlarning qahramoni – bilimlarni mustaqil ravishda o'rganishi kerak bo'lgan qobiliyatli bola. Aynan mana shu bolalar ko'pincha buyuk ishlarni amalga oshiradilar va jamiyatni yaxshi tomonga o'zgartirishga hissa qo'shadilar. Lauren atrofidaqlari odamlarni bir-biriga yaqinlashtirish va ularni yaxshi hayotga olib borish uchun iqtidorga ega. U postmodern jamiyatga mansub oilada tug'ilib o'sgan. Muallif ta'lim olish manzarasini postmodern tartibsizliklar fonida tasvirlaydi. Antiutopik romanning asosiy g'oyasi – noto'g'ri tushutilgan, iste'dodlari ba'zan ekspluatatsiya qilinadigan va hozirgi ta'lim tizimida qobiliyatlari to'liq rivojlanmay qolayotgan iqtidorli bolalar hayotidaqlari haqiqiy faktlarni namoyish etishdir. Bundan tashqari, mualliflik dasturi tengsizlik va tartibsizlik hukmron bo'lgan jamiyatdaqlari hayotiy qiyin vaziyatlarda faol bolalarning xatti-harakatlarining in'ikosiga aylanadi. Boylar bundan mustasno, jamiyatning boshqa a'zolari uchun o'z turmush sharoitlarini yaxshilash va hatto taxmin qilingan kelajakdaqlari Amerikada omon qolish qiyin. Jamoa yoki oilaga umid qilish befoyda edi, chunki na cherkov va yaxshi qo'shnichilik an'analariga asoslangan an'anaviy jamoalar, na oila halokatli o'zgarishlarga dosh bera olmaydi.

Yozuvchi Lori Xoles Andersonning "Gapir" romani qahramoni 13 yoshli Melinda ismli qiz o'rta maktab o'quvchisi tomonidan jinsiy zo'ravonlik qurboni bo'ladi. Roman voqealari birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. U kitobxonni maktabi, o'qituvchilari, sinfdoshlari, ota-onalari bilan tanishtiradi, odamlar bilan o'zaro munosabatlari haqida gapiradi. Kitobxon o'z atrofidaqlari dunyoni xuddi shu qizning nigohi bilan tasavvur qiladi. Romanning g'oyasi yozuvchining 14 yoshida jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgan shaxsiy jarohatiga asoslangan, o'sha paytda muallifning oilasi va oilaviy munosabatlarda qiyinchiliklarga duch kelgan.

Romanning kompozitsiyasi kundalik uslubiga mos keladi, unda

qahramonning qisqa suhbatlari, kuzatishlari va fikrlari qayd etilgan. Andersonning hikoya qilish uslubi qiziqarli bo'lib, unda qahramonning hissiy holatini tasvirlaydigan holatlar haqida hikoyalar ustunlik qiladi va muallif ularni batafsil ko'rib chiqadi, roman syujetida asosiy bo'lgan ziyofatdagi voqealar esa faqat o'tmishda yoki o'tmishdan parchalar sifatida eslatib o'tiladi. Roman nostandart hikoya shakliga ega, u to'rt bob va boblar ichidagi ko'plab epizodlardan iborat bo'lib, hikoya ko'pincha zo'ravonlik harakati va undan keyingi holat haqidagi achchiq xotiralar va tinish belgilarining haddan tashqari ishlatilishi bilan yakunlanadi. Buni matnni yosh qahramonning ongida doimo paydo bo'ladigan fikrlarining tarqoqligi va chalkashligi bilan izohlash mumkin.

Qahramonning psixologik obrazini yaratish uchun muallif bevosita va bilvosita tasvirga ham murojaat qiladi, muallif qizni tevarak-atrofdagi predmetlarni, ob-havo sharoitini, kundalikdagi fikrlarini, qaysar sukunatini tasvirlash orqali uning ichki dunyosini ochib beradi. Romanning boshidan boshlab o'quvchi qahramonning ahvolidan xavotirlanadi. Muallif o'z portretini chalkash his-tuyg'ulari va atrofdagi dunyoni idrok etishi orqali chizadi, uning kayfiyati uning yonida joylashgan narsalar va *"cracked mirror"*¹²(25-bet) – darz ketgan oyna, *"broken globe"* – "singan globus" (9-12-bet), *"wounded zebra"* (5-bet) – yaralangan zebra kabi detallar orqali ifodalanadi. Muallif qahramonning holatini tasvirlashda, badiiy taassurotni kuchaytirish uchun o'lim mavzusiga va o'z joniga qasd qilish fikrlariga murojaat qiladi. "Dead" ("o'lik") so'zi romandagi asosiy so'z bo'lib, ko'pincha *"dead roaches crocheted together with cob webs"* – o'rgimchak to'rlariga o'ralgan o'lik tarakanlar, *"trees nearly dead"* – deyarli qurib qolgan daraxtlar, *"dead frog"* (80-82-bet) – o'lik qurbaqa, *"dead deer"* (121-bet) – o'lik kiyik, *"dead dog"* (121-bet) - o'lik it, *"dead rat decomposing in the wall"* – bu devorda parchalanib ketgan o'lik kalamush va hokazo. "O'lim" motivi romanning barcha sahifalaridan o'rin olgan. Qahramonning his-tuyg'ulariga parallel ta'sir qiladigan peyzaj – ob-havoning holati: yomon ob-havo kamdan-kam uchraydigan mintaqada yog'ingarchilik kechasi 8 dyuymdan (20 sm dan ortiq) oshadi, *It seems like a good idea until I'm standing at the bus stop in front of school as a blizzard rips through the county. The wind chill must be twenty below and I don't have a hat or mittens. I try keeping my back to the wind, but my rear end freezes. Facing it is impossible. The snow blows up under my eyelids and fills my ears* (81-bet) – ob-havoning kutilmagan o'zgarishlari, qahramon ham, uning oilasi ham bunday sovuqqa tayyor emas. Qor qahramonning sukuti bilan bog'liq, bilvosita psixologik tasvir uning qaysar sukunati ham o'jarlik namunasiga aylanadi. Qahramonning hissiy holati bilan uzviy bog'liq bo'lgan daraxt tasvirida psixologik parallelizm kuzatiladi. Qahramon tomonidan tasvirlangan daraxtlar qizning ahvoli va his-tuyg'ulari haqida gapiradi. Bu yerda, masalan, shajara rasmi dumga (*"a family stump"*), qiyoslanganda, oila ichidagi munosabatlarning darz ketganligi, tanqisligi va

¹² Anderson L. Speak. – New York: Square Fish, 2011. – 198 p. (Roman matnidani tahlilga tortilgan keyingi parchalar ushbu nashrda keltirilgan.)

bo'shligini ifodalaydi. Daraxt qahramonning xarakterida ustunlik qiladigan kuch va chidam bilan yaxlitlikka aylanadi. Melinda o'z qiyofasini yaratish jarayonini hayotidagi davrlar bilan solishtirganda, daraxt ramzi bo'lgan vaqt kalit bo'ladi. *"hopeless"*, *"dead"*, *"boring"*, *"screwed-up"*, *"dying"*, *"pruned"*, sifatlari tarjimada "o'lik", "zerikarli", "qiyshiq", "o'layotgan", "kesilgan" ma'nolarini berib, roman bosh qahramoni ruhining so'nishini ko'rsatadi. Daraxt qiyofasi ham halokatli, ham falsafiydir, chunki keyinchalik qahramonga nisbatan zo'ravonlik daraxtlar ostida sodir bo'lganligi ma'lum bo'ladi va bu qahramonning o'zini to'liq topa olishiga sabab bo'ladi. Voqealar yakunida Melindaning daraxtlari nafas oladi, yashaydi va o'z ehtiyojlariga ega bo'ladi.

XX asr oxirida Qo'shma Shtatlarda nashr etilgan uchta adabiy asar tahlili turli jihatlarida bir qator o'xshashliklarni ko'rsatadi. Mualliflar o'z romanlarida bola dunyoqarashini shakllantirishda oilaning rolini alohida ta'kidlaydilar. Bosh qahramon Avi Filippning oilasi muammoning mohiyatiga chuqur kirib borishni istamaydi, haqiqatni tushunmaydi, muammoga bir yoqlama qaraydi; Lorenning otasi butun jamiyatni turg'unlik va halokatga olib kelgan eski dogmatik e'tiqodlarini o'zgartirishni xohlamaydi, ota o'z ideallarini o'zgartirishni istamaydi, unga moslashish esa yovuzlik bilan yonma-yon yashashdek azobga aylanadi; uchinchi qahramon Melinda Sordino oilada tushunmovchiliklar qurboniga aylangan, onasi o'z ishlariga mukkasidan ketgan, otasi esa ishdan ayrilishdan qo'rqadi, ota-ona hatto o'smir farzandlaridagi muammoni sezmaydilar. Qizi do'stlarini uyga olib kelishni to'xtatganda ham, o'zining izolyatsiyasini his qilmadi. Romanlarning hikoya qilish shakli ham o'ziga xosdir – uchala roman ham o'smirlar kundaliklari yoki qisman ularning kundaliklaridagi yozuvlarni o'z ichiga oladi. Avi va Andersonning mohiyatan maktabda kechadigan romanlari so'zlashuv uslubiga ega va norasmiy idiomalarga boy. Batler va Anderson romanlarida bosh qahramonlar ko'p o'ylaydigan, o'zining va boshqalarning harakatlarini tahlil qiladigan o'smir qizlardir.

"XXI asr boshlarida AQSh nasrida yoshlar obrazi" nomli uchinchi bobda oila mavzulari, beparvo ota-onalar bilan o'zaro darz ketgan munosabatlar muammosi, ota-onalar va yosh avlod o'rtasidagi munosabatlarning bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga ta'siri XXI asr boshlarida yaratilgan Shon Makbrayd qalamiga mansub "Yashillik. Maysa. Inoyat" (2008) va Justin Torrisning "Biz hayvonlarmiz" (2011) romanlarida markaziy o'rinni egallaydi. XXI asr yoshlariga bag'ishlangan adabiyotlarda oilaviy qadriyatlarning tanazzuli bevosita oilaviy murakkab vaziyat asosida yuzaga keladi va ushbu mavzu ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shon Makbraydning "Yashillik. Maysa. Inoyat" romanida Filadelfiyada Sent-Patrik ko'chasida yashovchi o'n uch yoshli bola va uning oilasi haqida hikoya qilinadi. Hikoya birinchi shaxs tomonidan, ya'ni ota-ona, uch aka-uka va bir opa-singildan iborat katta oilada o'sgan bosh qahramon Genri Tuxey nomidan hikoya qilinadi. Romanning eng muhim mavzularidan biri – yoshlar isyonidir. Asar syujeti yoshlar o'rtasidagi isyonning giyohvandlik, spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlarini suiste'mol qilish bilan bog'liqligini

